

TURLI ZOTGA MANSUB SIGIrlARNING O'SISH VA RIVOJLANISH KO'RSATKICHLARINI BAHOLASH

*Ilmiy rahbar: Amonov Rasul Chorshambi o'g'li,
bakalavr Ja'ababayev Timur Baxadir uli,
bakalavr Saparbaev Quwanish Elburus uli.
Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va
biotexnologiyalar universiteti Nukus filiali*

Annotatsiya. Ushbu maqolada sigirlarning o'sishi va rivojlanish ko'rsatkichlari tirik vazni ko'rsatkichlari o'rganilgan.

Kalit so'zlar: tirik vazn, qoramollar, sut, go'sht mahsuldorligi rivojlanish, o'sish, genotip, o'sish dinamikasi

Ma'lumki, hayvonlarni turi, zoti, jinsi, yoshi va mahsuldorlik yo'nalishidan qat'iy nazar tirik vazni muhim va asosiy seleksion belgisi bo'lib hisoblanadi va hayvonlarni rivojlanganlik darajasini ifodalaydi. Sigirlarning tirik vazni to'g'risida ham xuddi shu fikrlarni aytish mumkin. Sigirlarning tirik vazni, ularning irsiyatiga, oziqaning to'yimlilik ko'rsatkichlariga, asrash sharoitiga, ekologik xolatiga tabiiy-iqlimga va boshqa bir qator omillarga bog'liq bo'ladi.

Legoshin G.P. va boshqalar (2002), Proxorenko P., Amerxanov X. larning (2002) va M.E.Ashirovlarning (2017) ta'kidlashlaricha sigirlarning maqbul tirik vaznini aniqlash u yoki bu zotni takomillashtirishda yuqori genetik salohiyatga ega bo'lgan yuqori mahsuldor podalarni shakllantirishda muhim amaliy ahamiyat kasb etadi. Shuningdek podalarni takomillashtirishda jahon genofondiga xos bo'lgan zotlarni naslli buqalaridan samarali ravishda chatishtirish ishlarida foydalanishda muhim o'rin tutadi. Shuning uchun ham biz o'z tadqiqotlarimizda turli psixo-etologik tiplarga mansub bo'lgan golshtin va qora-ola zotli sigirlarni sun'iy urug'lantirishdan oldin, sigirlar tuqqanidan keyin va laktatsiyaning 3-oyligida tirik vaznini aniqladik va olingan natijalarni quyidagi 1-jadvalda keltirdik.

1-jadval

Tajriba guruhlaridagi sigirlarning tirik vazni (n=10)

Ko'rsatkichlar	Guruhlar			
	I		II	
	X±S _x	C _v ,%	X±S _x	C _v ,%
Sun'iy urug'lantirishdan oldingi tirik vazn, kg	477,9±3,9	7,1	462,0±4,9	6,1
Tuqqandan keyingi tirik vazn, kg	472,4±4,1	6,9	461,3±5,4	5,9
Laktatsiyaning 3-oyligidagi tirik vazni, kg	497,7±5,9	6,4	477,0±3,9	6,7

1-jadval ma'lumotlarining tahlili shundan dalolat berganki, psixo-etologik tiplar kesimida sigirlarning tirik vazni bir xil bo'lmagan.

Xususan sun'iy urug'lantirishdan oldingi tirik vazn faol psixo-etologik tipiga mansub bo'lgan sigirlarda 462 kg ga teng bo'lib, o'z tengqurlari I tajriba guruhidagi o'ta faol psixo-etologik tipiga mansub bo'lgan sigirlardan 15,9 kg yoki 3,4 foiz ortda qolgan. Bu farq tuqqandan keyingi tirik vazn bo'yicha va laktatsiyaning 3 oylik tirik vazni bo'yicha I guruhdagi o'ta faol psixo-etologik tipiga mansub bo'lgan sigirlar foydasiga shunga mutanosib ravishda: 11,1 kg yoki 2,4 foiz va 20,7 kg yoki 4,3 foizni tashkil qilgan.

Umuman olganda tajriba guruhlaridagi sigirlarning tirik vazni bo'yicha psixo-etologik tiplari kesimida sezilarli darajada farq kuzatilmagan.

Xulosa

Turli zotga ega bolgan sigirlarning o'sishi va rivojlanishini baholaganda asoson ularning fiziologik holatiga, etologiyasiga hamda qaysi zotga mansub ekanliga katta etibor berish lozim. Xulosa qilib shuni aytish mumkin sigirlarning o'sish va rivojlanishi ularni asrash sharoitiga va yaxshi oziqlanishiga bog'liq.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Кахаров А. Эффективность использования пород крупного рогатого скота разного направления продуктивности и их помесей для производства говядины в условиях Юга Узбекистана. Автореф. Дисс. докт. с.-х. наук. Ташкент. 1994. 50 с.

2. Каримов Ш.А. Продуктивные и некоторые биологические особенности швицкой и черно-пестрой пород крупного рогатого скота в условиях фермерских хозяйств. Автореф. Дисс. Канд. с.-х. наук. Ташкент. 2007. 21 с.

3. Калашников А.П. Нормы и рационы кормления сельскохозяйственных животных. Москва «Агропромиздат» 1985, 51 с.

4. Лещук Г.П. Задачи племенной работы в качественном преобразовании молочного скота Зауралья. Ж. «Зоотехния», 2006, №10, с. 2-3

5. Nosirov U.N. Qoramolchilik. Toshkent. 2001. 383 b.

6. Nosirov U.N., Shakirov Q. O'zbekiston sharoitida golshtin va flegfix simmental zotlarining iqlimga moslashish, nasldorlik va mahsuldorlik sifatlarini takomillashtirish. Avtoref. diss. s.-x. nauk. Tashkent. 2015. 34 s.